



ISLOHOTLAR SAMARASINI O‘Z HAYOTIDA KO‘RISH XALQIMIZNING RUHINI KO‘TARIB, ERTANGI KUNGA ISHONCHINI MUSTAHKAMLAMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 10-avgust kuni iqtisodiyot rivoji, mahallalar hayoti, sanoat korxonalari va yangi ishlab chiqarish quvvatlari bilan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifini Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qilishdan boshladi. Qur‘on oyatlari tilovat qilindi. Aloh taolodan o‘tganlarga rahmat, yurtimizga tinchlik-farovonlik tilab duo o‘qildi.

Diniy ulamo bilan suhbatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, islom ma‘rifati haqida so‘z bordi. Yoshlarni yot g‘oyalar ta‘siridan asrash, bandleligiga ko‘maklashish, muhtoj oilalarni alohida mehr-e‘tiborga olish muhimligi ta‘kidlandi. Shu yerda majmua atrofida rejalashtirilayotgan qurilish-ta‘mirlash loyihasi ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, Bahouddin Naqshband maqbarasiga Toqimiyona darvozasidan boruvchi tarixiy yo‘lakni tiklash, Doniyoibiy madrasasini ta‘mirlash, tahoratxona va muzey barpo etish mo‘ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari ziyorat turizmi uchun sharoitlarni kengaytirish, xorijdan Buxoroga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnovlar va mehmonxona tashkil etish, qabristonni obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “Siyovush tekstil” korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Bu joy ilgari unumsiz, bo‘sh turgan maydon edi. Tadbirkorlarga sharoit yaratish maqsadida hudud “G‘jduvon” erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan. Zarur infratuzilma barpo etilgach, bu yerda sanoat rivojlandi. Xususan, “Siyovush tekstil” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining 36 million dollarlik loyihasi o‘tgan oyda ishga tushdi. Unda yiliga 40 ming tonna akril ip-kalava yigirish quvvati hamda 600 ish o‘rni yaratildi.

— Bu Yangi O‘zbekistondagi yangi yo‘nalish, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Yurtimizda to‘qimachilik sanoati rivojlan-yapti. Agar korxonalar qo‘shilgan qiymat yaratib, daromadini oshiraman desa, qisman akril ishlatishiga to‘g‘ri keladi. Undan tayyorlangan mahsulot qiymati 5 barobar oshadi. Bu — manfaatdorlik, barqarorlik, odamlarga ish o‘rni, degani. Shuning uchun davlat paxtani qayta ishlashga qancha ko‘makdosh bo‘lgan bo‘lsa, endi

sun‘iy tola ishlab chiqarishga ham shunday yordam beradi.

Korxonada loyihaning birinchi bosqichi ish boshlagan. Ayni paytda xorijlik hamkorlar bilan korxona faoliyatini kengaytirish ustida ish olib borilmoqda. Rejaga ko‘ra, keyingi bosqichda akril tola hamda undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish to‘liq mahalliyashtiriladi. Jami ish o‘rni soni 1 ming 200 taga yetadi.

Prezidentimiz “Buxoro Agroklasterni” tizimidagi bir qator korxonalar faoliyati bilan ham tanishdi.

Xususan, Buxoro shahridagi “Buxoro Agroklasterni DZZ” korxonasida sutni qayta ishlash va qadoqlash yo‘lga qo‘yilgan. 6,2 million dollar investitsiya evaziga qarovsiz maydonda barpo etilgan majmuaga Italiya va Rossiyadan uskunalar keltirib o‘rnatilgan. 2021-yilda ochilgan korxonada bugungi kunda yiliga 22 ming tonna sut qayta ishlanmoqda. Undan tayyorlanayotgan kefir, sut, pishloq, yogurt, qaymoq, smetana kabi mahsulotlarning turi qirqdan ortiq. Korxonada 150



nafar aholi doimiy ish bilan ta‘minlangan. Prezidentimiz bu yerdagi ish jarayoni va mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi.

Ish ko‘lami va daromadning ortishi klaster faoliyatining kengayishiga xizmat qiladi. Majmua hududida yangi inshootlar qurildi. Xususan, korxona tizimida yer maydonlari unumdorligini aniqlab beruvchi zamonaviy laboratoriya ishga tushirildi. U Germaniyaning zamonaviy texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu yerda tuproq tarkibidagi qirqdan ortiq, suv tarkibidagi o‘nga yaqin ko‘rsatkichlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Buxoro viloyati ekin maydonlarining sho‘rlanganlik darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori. Hosildorlikka erishish uchun tuproq tahlili nihoyatda zarur. Bu laboratoriyada tuproqning kimyoviy tarkibi o‘rganilib, shu orqali o‘simliklarning mineral va organik o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi aniqlanadi. Tuproq xossalari, sho‘rlanish darajasi ham o‘rganiladi. Uning natijalari asosida yerni me‘yoriylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladi.

Bu yerda shakllantirilgan ma‘lumotlar korxonaning yana bir loyihasi — “Agro Smart Map Uz” platformasiga yuklab boriladi. Shu ma‘lumotlar asosida yer egalari kerakli agrotexnologik tavsiyalar oladi. Davlatimiz rahbari laboratoriyadagi sharoitlar bilan tanishdi. Prezidentimizga “Buxoro Agroklasterni”ning boshqa loyihalari haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari Buxoro viloyati Romitan tumani Qahramon mahallasi aholisining turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi. Bu yerda 3 ming 900 nafarga yaqin aholi yashaydi. Mahallaning drayveri hunarmandlik va issiqxona xo‘jaligi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. 200 gektar maydondagi issiqxonalarda bozorboq sabzavotlar yetishtirib sotiladi. Shuningdek, mebelsozlik, tikuvchilik, zardo‘zlik yaxshi rivojlangan.

Prezidentimiz shu yerlik Xalil Qobilov va Gulbahor To‘xtayevlar xonadonida bo‘ldi. Qo‘ni-qo‘shnilar, oqsoqollar yig‘ilib, samimiy davra qurildi.

Mahalla raisi hududdagi o‘zgarishlar, odamlar hayoti haqida so‘zlab berdi.

Mahallada o‘ndan ortiq savdo do‘koni, tikuvchilik ustaxonalari, mehmonxona va restoranlar bor. Ularda mahalliy yoshlar ishlab, daromad topmoqda. Umuman aytganda, mahallada ishsiz odam yo‘q, o‘tgan davrda birona jinoyat sodir etilmagan. “Obod mahalla” dasturi asosida infratuzilma yaxshilangan. Xususan, ichki yo‘llar asfaltlanib, piyodalar yo‘laklari qurilgan. Transformator o‘rnatilib, elektr tarmoqlari yangilangan.

— Odamlarga nima kuch beradi? Islohotlar natijasini o‘z hayotida ko‘rish. Bugun odamlarimiz shunday ruh bilan ertangi kunga intilyapti. Harakat qilgan oilaning biri ikki bo‘lyapti. Xalqimiz bizga katta ishonch bildirdi. Yangicha o‘zgarishlar, yangi tashabbuslarni kutaypti. Bu juda yuksak mas‘uliyat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uchrashuvda nuroniy yoshlar tarbiyasi, tuman rivoji bo‘yicha o‘z takliflarini bildirdi.

▶ Davomi 2-betda



OCHIQ MULOQOT OLIDAN

TADBIRKOR AYOL SOG‘LOM RAQOBATDA TENG IMKONIYATLARGA EGA

Yaqinda yurtimizning eng chekka qishloqlaridan birida bo‘ldim. Avvallari bu yerlik aholining asosiy daromadi qishloq xo‘jaligi, tomorqachilikdan edi. Butun bir oila kichik yerga qarab qolgan, yilda bir yoki ikki marta hosil olish uchun qishin-yozin mehnat qilardi.

Qo‘lida hunari borlar ham ishlab, shahar olis, qishloqda ishlab chiqarish korxonalarni topish amri mahol edi. Hozir shu qishloqdagilar ancha jonlanib, turli yo‘nalishlarda o‘qib, ishlayapti, ayrimlari tadbirkorligini ham boshlabdi. Ayollardan biri avval uyida tikuvchilikni yo‘lga qo‘yib, 3-4 xotin-qizni yoniga olgach, mahalla unga bo‘sh bino ajratibdi. Ana shu binoda tikuvchilik sexi tashkil etib, qishloqning 30 nafardan ziyod aholisini ish bilan ta‘minlabdi.

Qishloqda bunday tadbirkorlar ancha ko‘payibdi. Xullas, aytaman desam, gap ko‘p. Ammo amin bo‘lganim, davlatimiz odamlarni bejiz tadbirkorlikka yo‘natilib, barcha sharoitlarni yaratib bermayotgan ekan. Chindan ham, bir hududda bitta tadbirkor bo‘lsa ham o‘sha joyning rivoji, iqtisodiy o‘sishi, aholi bandleligini ta‘minlashga sezilarli hissa qo‘shadi. Bu borada xotin-qizlarning ulushi ortib borayotgani, ayniqsa, quvonarli.

Davlatimiz rahbari 2021-yilda yurtimiz tadbirkorlari bilan o‘tkazgan ilk ochiq muloqotini yodga olaylik. O‘shanda biznes va-killariga juda katta ishonch bildirilib, ular yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotimiz va islohotlarimiz tayanchi hamda lokomotivga aylangan ta‘kidlangandi. Ishning ko‘zini biladigan, ishbilarmon yurtdoshlarimiz mamlakatimiz buniyodkorlari, deya e‘tirof etilgan.

Oxirgi yillarda tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni ham ortib borayotgani ayni haqiqat. Yurtimizda har yili yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelayotgani buning isboti. Shu bois, tarmoqni qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar berish yil sayin kengaymoqda. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratilayotir.

▶ Davomi 4-betda



INSON QADRI UCHUN



HUDUDLARDAGI YANGILANISHLAR

JAMIYATIMIZNING ZAMONAVIY QIYOFASIGA ASOS BO‘LMOQDA

Shu kunlarda mamlakatimizda eng ulug‘, eng aziz bayramimiz — Mustaqilligimizning 32 yilligini nishonlashga qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. Ushbu tabarruk shodiyona shukhi yurtimizning har bir hududida o‘zgacha ruhda namoyon bo‘lmoqda. Har go‘shada yangilanish, buniyodkorlik, yaratish shijoati hukmron. Odamlar tilida shukrona, dilida mamnunlik. Xalqimiz hayotimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, farovonlik yo‘lida amalga oshirilayotgan tashabbuslardan mamnun.

So‘nggi yillarda yurtimizning tobora chiroy ochib, ijtimo-yiqti-sodiy jihatdan rivojlanib borayotgan hududlaridan biri Farg‘ona viloyati va uning chekka-chekka qishloqlari, mahallalarida ham ushbu o‘zgarishlar

ruhini sezish qiyin emas. Tuman va shaharlarda ham xalqimiz turmushi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan katta o‘zgarishlar ro‘y beryapti.

▶ Davomi 3-betda



NUQTAYI NAZAR

SUG‘ORISHDA TEJAMKOR USULLAR

XARAJATNI KAMAYTIRIB, HOSILDORLIKNI OSHIRADI

Bugun dunyo hamjamiyatini o‘ylantirayotgan va tashvishga qo‘yayotgan muammolardan biri bu — shubhasiz, suvni tejash, qishloq xo‘jaligida undan oqilona foydalanish masalasi. Binobarin, obihayot taqchilligi sharoitida uni iste‘mol qilish va sarflashda tejamkor texnologiyalar qanchalik tez qo‘llanilsa, ommalashsa, shunchalik yaxshi.

Suv resurslari Markaziy Osiyo mintaqasida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham yildan-yilga kamayib bormoqda. Demak, suvdan foydalanish madaniyatimizni o‘zgartirish, faoliyatda yangicha yondashuvlarni tatbiq etish biz uchun hayotiy zaruratga aylanmog‘i kerak. Bu boradagi ishlarni aslo kechiktirib bo‘lmaydi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi 70 foizdan ziyod ekin maydonlari eski usulda sug‘oriladi. Bunday sug‘orish tizimi davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, “yerga nisbatan ham, suvga nisbatan ham vahshiylik”dir. Buni odamlar ongiga, madaniyatiga singdirish o‘ta muhim.

Shu bois, Prezidentimizning Saylovoldi dasturida ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratilib, 2030-yilga qadar respublikamizdagi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, bunday uskunalar joriy etgan fermer va dehqonlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada ko‘paytirish choralarini ko‘rilishi belgilandi.

Umuman, mamlakatimizda oldingi yillarda boshlangan va o‘z samarasini bergan tizim — suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sa‘y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda.

▶ Davomi 4-betda



INSON QADRI UCHUN

HUDUDLARDAGI YANGILANISHLAR

JAMIYATIMIZNING ZAMONAVIY QIYOFASIGA ASOS BO'LMOQDA



Mavluda XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Mehnat va ijtimoiy masalalar
qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Avvalo, viloyatdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida keyingi olti yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 56 trillion so'mni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 3,1 barobar o'sdi. Ushbu ko'rsatkich bilan viloyatimiz respublikada 5-o'rinni qayd etdi. Xususan, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 2022-yil yakuni bilan 14,2 million so'mga yetkazilib, 2016-yilga nisbatan qariyb 3 barobar ortgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlar, berilgan imtiyozlar natijasida Farg'onada tadbirkorlar soni 55,7 mingga yetdi va 2016-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Shu davrda viloyatda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga 39 trillion so'm kredit yo'naltirilgan.

Aholi bandligini ta'minlash borasida 2017-2022-yillarda 828,4 mingta ish o'rni yaratilib, bu ko'rsatkich oldingi yillarga solishtirganda 18 barobar oshgan. 2022-yilning o'zida hududda 559,3 ming fuqaro bandligi ta'minlangan. Birgina oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida fuqarolarga ajratilgan 3,3 trillion so'm kredit hisobiga 155 mingdan ortiq aholi ishli bo'ldi.

Keyingi yillarda aksariyat sohalarga xorijiy investitsiyalarni kiritish hamda iqtisodiyotning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo va Islom taraqqiyoti banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari hamda ko'plab xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan o'zaro hamkorlik natijalariga ko'ra, mamlakatimizda investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshmoqda.

Jumladan, viloyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytmoqda, pirovardida yangi quvvatlar ishga tushirilib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilayapti. Joziabador investitsiya muhiti yaratilayotgani tufayli xorijiy investorlarning ham shu yerda biznes yuritishga intilishi ortib borayotganini kuzatish mumkin.

Bu borada 2016-yilda viloyat iqtisodiyotiga 5,1 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lsa, 2022-yilda 957,4 million dollar investitsiya o'zlashtirilib, 2016-yilga nisbatan qariyb 190 barobar ko'paygan.

Keyingi yillarda o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qiladigan tadbirkorlar soni 3 barobar ko'payib, 779 taga yetdi. Taqqoslaydigan bo'lsak, 2016-yilda tadbirkorlar 275 ga yetgan. Shunga mutanosib ravishda 2022-yilda viloyatda eksport hajmi 829,4 million dollarni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 2,1 barobar ortgan.

Biz bu raqamlarni bejiz keltirmadik. Ular — tilsiz. Shu bois, har bir raqam ortida odamlar hayoti farovonligi bilan bog'liq katta o'zgarishlar borligini teran tushunish uchun iqtisodiy yuksalish mohiyatini sharhlashga to'g'ri keladi.

E'tibor bering, birgina 2022-yilning o'zida Farg'ona viloyatida 559,3 ming fuqaro bandligi ta'minlangan. Bu yarim million atrofida oilalarga to'kislik va ham-jihatlik muhiti, ishonch ruhi, mehr rishtalari kirib keldi, degani. Zero, jamiyatda bir kishini rozi qilish qanchalik qiyin bo'lsa, uning samarasi shunchalik shukuhli hamdir. Demak, yarim million oila va ularda yashayotgan yoshu keksa qalbiga xotirjamlik bag'ishlash saodati jamiyatimizning mutlaqo yangi qiyofasiga asos bo'layotgani ham bor gap.

Shundaygina yuqorida keltirilgan har bir raqam va iqtisodiy yuksalish ortida hayot quvvati va kelajakka buyuk ishonch ruhi, yaratuvcchanlik kayfiyati zohir ekanini ang'lash ko'p ham mushkul emasligini tushunamiz.

Keyingi yillarda Farg'ona viloyati tom ma'noda ijtimoiy yuksalish vodiysi sifatida ham bo'y ko'rsatdi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida salmoqli ishlar qilindi. Masalan, viloyatda keyingi olti yilda 2690 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilib, ular soni 3348

rida Prezident maktabi hamda viloyatning har bir hududida 1 tadan ixtisoslashgan maktab tashkil etilib, maktablar quvvati 2016-yilga nisbatan 128 ming 105 taga oshirildi.

Yana bir ustuvor masala, albatta, bu aholi salomatligini saqlashdir. Farg'ona viloyatida o'tgan olti yilda tibbiyot muassasalari soni 1233 taga yetkazilib, 2016-yilga nisbatan 1,7 barobar ko'paygan. Sohani rivojlantirishga 2022-yilning o'zida 2,4 trillion so'm ajratilib, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 4,5 barobar oshgan.

Muhandislik tarmoqlarini yaxshilashga o'tgan olti yilda qariyb 3,2 trillion so'm mablag' yo'naltirilgan.

Buning hisobiga: — ichimlik suv ta'minoti darajasi 2016-yildagi 58 foizdan 76,3 foizga ko'tarildi;

— yo'l infratuzilmasi aholi va transport vositalari harakatlanishiga qulay sharoit yaratish maqsadida viloyatdagi 5,5 ming kilometr uzunlikdagi yo'llarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, 2016-yilga nisbatan 11 barobar ko'p mablag' sarflandi;

— elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 5 ming kilometr elektr tarmog'i, 1320 transformator punktini qurish va ta'mirlashga 2016-yilga nisbatan 5 barobar ko'p mablag' yo'naltirildi.

Farg'onada 300 gektarli ulkan maydonda jadal qurilish ketmoqda. Bu yerda 65 mingdan ziyod aholiga mo'ljallangan 298 ta ko'p qavatli uy bunyod etiladi. Aholi zich yashaydigan shahar va viloyat uchun bu muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu yil massivda 73 ta uy barpo etilmoqda. Ularning dastlabkilari foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, hududda maktablar, maktabgacha ta'lim va tibbiyot muassasalari, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, sport majmualari qad rostlaydi. 50 gektarda tashkil etiladigan kichik sanoat zonasi aholini ish bilan ta'minlashda muhim o'rin



taga yetdi. Bu raqamlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2016-yilga nisbatan 5,1 barobar ko'payganini ko'rsatadi. Bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasi esa 34,2 foizdan 86,3 foizga oshirilib, bugungi kunda respublikada 1-o'ringa ko'tarildi.

Ayni paytda viloyatda 976 maktabda 675 ming o'quvchi ta'lim olmoqda. Qolaversa, o'tgan yillarda Farg'ona shah-

tutadi. Massiv o'ziga xos ekoshahar bo'ladi — 70 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston bog'i" va sun'iy ko'l barpo qilinadi. Bo'sh maydonlarga ham daraxtlar ekilib, sun'iy ko'l atrofida so'lim xiyobon tashkil etiladi.

Men Farg'ona farzandim. Shu go'zal vodiya bolaligim, o'smirlik chog'im o'tgan. Uning har bir gulli, mevasi, to'lli suvi, bir tishlam noni men uchun aziz. Viloyatda bitta o'zgarish bo'lsa, qalbm tog'dek yuksaladi, bir kamchilik ko'rsam, yuragim achiydi. Shu bois, keyingi yillarda Farg'onada bo'layotgan o'zgarishlar bilan haqli ravishda faxrlanish va g'ururlanishga o'rganib qoldik. Odamlar hayoti o'zgardi, dunyoqarashi, fikrlashi o'zgardi.

Buni hozir biz tahlil qilgan ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar misolida ham ko'rish



ko'pi bog'chaga bormas, maktablar xarob ahvolda edi. Ihsizlik muammosi esa avjiga chiqqan, norg'ul, ayni kuchga to'lgan yigitlar oilasini boqish uchun chet ellarda saron-sargardon yurishga majbur bo'lardi. Bundan kim aziyat chekadi? Albatta, shu yigitlarning ot-aonasi, yoru birodari, farzandlari. Bora-bora bu vaziyat odamlar o'r'tasida chuqur tushkunlik kayfiyatini sodir etdi. Jamiyattan, hayotdan, davlatdan norozilik kayfiyatini vujudga keltirdi.

Bugun ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar mana shu kabi noxush manzaralarni tub-

qo'shimcha 125 ming o'quvchi o'rni yaratish vazifasi belgilandi.

Qolaversa, keyingi yillarda xususiy sektor ishtirokida 300 dan ziyod klinika, Farg'ona shahrida ming o'ringa mo'ljallangan ko'p tarmoqli tibbiyot klasteri faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Yana bir muhim masala — aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ham ulkan vazifalar belgilab olindi. Ya'ni kelgusi yetti yilda viloyatda 2,5 mingta ko'p qavatli uylar qurilishi hisobiga 100 ming oila shi-

nam uy-joyga ega bo'ladi. 5 ming kilometr

Viloyatda kelgusi yetti yilda 100 ta zamonaviy agrologistika markazi barpo etilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi hozirgi 8 foizdan 25 foizga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, bir qator hal etilishi lozim bo'lgan muammolar yig'ilib qolgani, ularni hal etish uchun mutasaddilarning mas'uliyatini yanada oshirish borasida gap bordi.

Buning uchun viloyatning ishga solinmagan imkoniyatlarini aniqlash va ularni ro'yogba chiqarish bo'yicha har bir tuman va shaharga respublikadan mas'ullar birkirilgan. Ular tomonidan 2 milliard dollarlik qo'shimcha zaxiralar aniqlangan va tadbirkorlar bilan uchrashib, loyihalar shakllantirilgan. Ushbu ishlarni samarali amalga oshirishda biz, deputatlar ham bor kuch-imkoniyatimizni ishga solamiz, albatta.

Prezidentimiz lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida "Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi... O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhiti ham o'zgartira oladi, o'z muros-maqsadlariga albatta yetadi", dedi.

Bugun barcha yurtdoshlarimiz qatori farg'onaliklar ham shu gaplarning bor hikmatini aniq anglab yetmoqda. Bu barcha darajadagi rahbarlardan tortib, oddiy odamlar fikru tafakkuriga yetib borayotgani Farg'onaning yangi islohotlar shukuhiga cho'mayotganida, hayotning kun sayin yaxshi tomonga o'zgarayotganida ham aks etadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlashni istardikki, mamlakatimizdagi kechayotgan yangilanishning hududiy in'ikosini jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos solmoqda. Axir o'zingiz o'yab ko'ring, bir oila farovonlik ta'minlansa, uning ortidan qancha-qancha odamlar xotirjamligi ta'minlanadi. Agar bu formulani mahalla, undan chiqib, qishlog'u shaharlar va butun mamlakat miqyosida ko'rib chiqsak-chi?

Shunda bugungi hayotimizning kechagi kunlarimizdan farqli jihatlarini ko'ramiz va ularni e'tamiz. Har birimizning qalbmizda shukronalik hissi jo'sh uradi, bugungi farovon hayotimiz qadri aniq anglab yetib boshlaymiz.

Bugun mamlakatimizda barcha sohadagi islohotlar chuqurlashib, fuqarolarimiz ong-u tafakkurida kechayotgan o'zgarishlar yurtimiz qiyofasida o'z ifodasini topmoqda. Shu bilan birga, joylarda hali qilinadigan ishlar ham talaygina. Xalqimizni rozi qilish, turmush sharoitini yaxshilash, hududlar iqtisodiyotini yanada yuksaltirish borasida barcha mas'ullar birdak harakat qilishi va albatta, aholi-ning taklif va tavsiyalarini inobatga olgan holda sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi ishlarni ham jadal-lashtirishi lozim bo'ladi.

Aholi bandligini ta'minlash borasida 2017-2022-yillarda 828,4 mingta ish o'rni yaratilib, bu ko'rsatkich oldingi yillarga solishtirganda 18 barobar oshgan. 2022-yilning o'zida hududda 559,3 ming fuqaro bandligi ta'minlangan. Birgina oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida fuqarolarga ajratilgan 3,3 trillion so'm kredit hisobiga 155 mingdan ortiq aholi ishli bo'ldi.

dan o'zgartirib yubordi. Yuqoridagi raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya vositalari joy-joyiga tushgan. Ya'ni O'zbekiston tom ma'noda ijtimoiy davlat vazifasini to'laonli bajara boshladi.

Albatta, barcha xayrli ishlar, avvalo, aholining hayot sifatini oshirish, oilalar farovonligini ta'minlashga zamin bo'lmoqda. Shu bilan birga, aholini rozi qilish, bu siyosatni hayotga to'liq tatbiq etish borasida hali ko'plab qiladigan ishlarimiz bor. Prezidentimizning Farg'ona viloyatidagi saylovchilar bilan uchrashuvida hamda joriy yil 27-28-iyul kunlari viloyatga tashrifi chog'ida bu boradagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Xususan, saylovchilar bilan uchrashuvda "Yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda quramiz!" degan g'oyani mujassam etgan Saylovoldi dasturi doirasida Farg'ona viloyatini kelgusi yetti yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surildi. Unga ko'ra, Farg'ona viloyatida keyingi yetti yilda 2 mingta davlat va xususiy bog'chalar

uzunlikda ichimlik suv tarmog'i barpo etilib, viloyatda toza ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 96 foizga yetkazildi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash izchil davom ettiriladi. Viloyatga kelgusi yetti yilda 18 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, 10 mingta loyiha ishga tushiriladi. Shuningdek, 30 ta sanoat zonasi tashkil etilib, ularda 50 ming yuqori daromadli ish o'rinlari yaratiladi.

Prezidentimiz odamlar turmushini yaxshilashda mahallalarni markaziy bog'ing'a aylantirish, aholi daromadini oshirish orqali ehtiyojmand oilalar sonini keskin kamaytirishga qaratilgan qator maqsad va vazifalarni ham belgilab berdi. Umuman, Farg'onani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun yetti yillik dastur qabul qilinib, unga jami 28 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltirish rejalashtirilgani ta'kidlab o'tildi.

Qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirish masalasi ham ustuvor ahamiyat kasb etadi, albatta. Ushbu yo'nalishda viloyatda 2030-yilgacha bir gektardan olinadigan o'rta daromadni 2,5 barobar oshirib, 7 ming dollarga yetkazish, eksport-ni esa 10 milliard dollarga chiqarish, sohaga 15 milliard dollar investitsiya jalb qilish mo'ljallanmoqda.

Bunga erishish uchun albatta katta ishlar amalga oshirilishi kerak. Avvalo, qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, ilg'or xorijiy tajriba asosida alohida dastur ishlab chiqilib, yer unumdorligini oshirish, eroziyadan himoyalash, degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklash kabi masalalar hal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar joriy etilishi va suv yetkazishdagi yo'qotishlarning oldini olish maqsadida yopiq quvurlar tizimi qo'llanilishi lozim bo'ladi.

“Prezidentimiz lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida “Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi... O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhiti ham o'zgartira oladi, o'z muros-maqsadlariga albatta yetadi”, dedi.

mumkin. Bundan bir necha yil oldin farg'onalik odamlarni farzandi taqdiri ko'p o'ylantirar, chunki bolalarning yarmidan

tashkil etilishi, yangi maktablar qurish va mavjudlarining quvvatini oshirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hisobiga





BOQIY MEROS

Ma'rifat

YANGI O'ZBEKISTON

A.N.Samoylovich nashr qilingan va qilinmagan ilmiy ishlari bilan boburshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi va "Bobur ijodini o'rganish ham burch, ham faxr, ham baxti" ekanini isbotladi. I.V.Stebleva, L.Tugusheva, G.F.Blagova kabi boburshunos olimlar A.N.Samoylovich boshlagan ilmiy ishlarni muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.



Boburshunoslik VA JAHON ILM-FANI

**Gulnoz XALLIYEVA,
O'zDJTU professori, filologiya fanlari doktori**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-yanvarda imzolangan "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk bobomizning hayoti, faoliyati, ma'naviy merosini yanada chuqur o'rganish, yoshlarimizni ulug' ajdodlarimiz xotirasiga ehtirom ruhida tarbiyalashda muhim qadam bo'ldi.



gologik aspektda tekshirilmagan, bu esa mavzuning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Bobur qo'lyozmalarini to'plash, uning ijodiy merosi bilan qiziqish Rossiyada XIX asrdan boshlangan. Rus olimi I.Beryozin 1857-yilda chop etilgan uch jildli "Turkiy xrestomatiya"ga "Boburnoma" va "Mubayyin" asarlaridan ham ayrim parchalarni kiritgan. Rus olimi, akademik A.N.Samoylovich I.Beryozin haqidagi maqolasida "Turkiy xrestomatiya" nuqsonlardan xoli bo'lmasa-da, unga kirgan namunalardan ayrimlari, masalan, "Mubayyin" asari oldin hech qayerda nashr qilinmagan bilan alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

1857-yilda rus olimi N.Ilminskiy Qozonda "Boburnoma"ni nashr qildiradi. Shundan keyin matbuotda "Boburnoma"ning rus tilidagi tarjimalari paydo bo'la boshlaydi. Jumladan, V.Vyatkin, S.Polyakov, V.Ostrovskiy va boshqa olimlar asardan ayrim parchalarni tarjima qilib, rus kitobxonini Bobur ijodiy merosi bilan tanishtirdi. Kuzatishlar XX asrning birinchi yarmiga qadar Bobur ijodi bilan jiddiy qiziqqan olim A.N.Samoylovich bo'lganini ko'rsatdi. Uning bu borada bir qancha tadqiqotlari mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari hali-hanuz ilmiy jamoatchilikka noma'lum bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, olim arxivida



bo'lgani bois, ularni qiyosan o'rganadi, ingliz, fransuz, rus tiliga qilingan tarjimalari bilan bog'liq ishlarga qator taqrizlar yozadi. Bu taqrizlar obyektivligi, prinsipiialligi, talabchanligi bilan ajralib turadi. Xususan, uning V.L.Vyatkin, S.I.Polyakov,

Rossiya Milliy kutubxonasi arxivida Sankt-Peterburg universiteti Sharqshunoslik fakulteti tolibi bo'lgan B.M.Guryevning A.N.Samoylovich rahbarligida yozilgan "Farg'ona" nomli kurs ishi ham saqlanadi. Ishda "Boburnoma"ning turkiy qo'lyozma nusxalari taqqoslangan va fors, yevropa tillariga tarjimalari asosida Farg'ona tasviri qiyosiy o'rganilgan.

Olima G.Blagovaniy ta'kidlashicha, A.N.Samoylovich umrining salkam yigirma yilini "Boburnoma"ni o'rganishga bag'ishlagan. Olimning yuzaga chiqqan ilmiy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rgangan olim qator izlanishlarida A.N.Samoylovichni Bobur ijodining bilimdoni sifatida e'tirof etadi.

IMPERATOR BOBUR YOZUVCHI SIFATIDA

A.N.Samoylovichning arxivda saqlanayotgan "Turkiy etyudlar" asari mundarijasidan ma'lum bo'lishicha, ishning uchinchi bobi "Imperator Bobur yozuvchi sifatida" deb nomlangan hamda "Diniy traktat Mubayyin" va "Mistik traktat Risolai Volidiya" kabi fasllardan iborat bo'lishi kerak edi. Demak, muallif "Turkiy etyudlar"ni Bobur ijodiyotiga doir fikr-mulohazalar bilan boyitishni, shoirning barcha asarlari haqida qisqacha ma'lumot berish va to'plamga kirgan she'riy asarlar tilini tahlil etishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, A.N.Samoylovich O'rta Osiyo turkiy adabiyoti xrestomatiyasini tuzishni, "XVI asrlar adabiyoti" degan qismida Bobur hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni berishni ko'zlagan. Olimning arxivi o'rganilganda mazkur xrestomatiyaning rejasi va ba'zi qaydlar kuzatildi. Ammo mash'um qatag'on A.N.Samoylovichga bu xayrli ishlarni amalga oshirishga imkon bermagan.

Olim arxivida yana bir muhim xabar — "Mubayyin" asarini nashrga tayyorlayotgani ma'lum qilinadi. Haqiqatan, A.N.Samoylovich arxivida asarning u nashrga tayyorlagan nusxasi saqlanmoqda. Olimning ishga jiddiy kirishganini arxivdagi uning o'z qo'li bilan ko'chirgan "Mubayyin" (266 bet) asari, unga qaydlari, shuningdek, "Bobur ijodiga doir qoramalar" ham tasdiqlaydi.

1917-yilda A.N.Samoylovich Bobur devonining Parij va Hindiston nusxasi asosida "Sobraniye sochineniy impera-


tora Babura" to'plamini nashr qildiradi. Bu fakt ba'zi nashrlarda ikkita qo'lyozma nusxa va "Boburnoma"dagi she'rilar asosida deb noto'g'ri talqin qilingan. Chunki olim "Boburnoma"dagi she'rlarni alohida o'rgangan.

A.N.Samoylovichdan sal oldin, ya'ni 1910-yilda ingliz olimi D.Ross Bobur devonini Rampur (Hindiston) nusxasi asosida qo'lyozma faksimile bilan birga Kalkuttada nashr qildiradi. 1911-yilda A.N.Samoylovichning bu haqdagi maqolasi e'lon qilinadi. Maqoladan ma'lum bo'lishicha, devonning Rampur nusxasi ikki qismdan — "Volidiya" asarining Bobur qalamiga mansub turkiy tarjimasidan va she'rildan tashkil topgan. Qo'lyozma tarkibidagi she'rilar Boburning Hindistondagi davrining mahsuli ekanini D.Ross so'zboshisida qayd etmaganini yozgan A.N.Samoylovich o'z fikrini "Boburnoma" orqali tasdiqlaydi. "...Humoyung'a tarjimanikim, Hindustong'a kelgali aytoq ash'orni yiborildi. Hindolg'a va Xoja Kalong'a ham tarjima va ash'or yiborildi. Mirzobek tag'oyidin ham Komrong'a tarjima va Hindqqa kelgali aytoq ash'or va "Boburiy xati" bila bitilgan sarxatlar yuborildi" ("Boburnoma"dan). Demak, boshqa asarlari qatorida "Boburnoma"da bu devon haqida ham ma'lumot berilgan.

Jiddiy kuzatishlardan keyin A.N.Samoylovich mazkur to'plamda boshqa qo'lyozma devonlarda uchramaydigan 379 ta she'r borligini ham aniqlaydi. Shuningdek, Parij va Rampur nusxasidagi she'riy janrlar tili, tarkibi haqida o'z fikrlarini bayon qiladi. Unga ko'ra, Rampur nusxasi Parij nusxasidan farqli o'laroq, turkiy she'rildan tashqari fors va urdu tilida yozilgan she'rlarni ham o'zida jamlaydi.

"...SO'ZUMNI O'QUB YOD QILG'USEN O'ZUMNI"

Rampur qo'lyozmasi Bobur o'z qo'li bilan yozgan she'ri bilan yakun topishi jihatidan ham to'lab sanaladi. Buni A.N.Samoylovich D.Ross so'zboshisida qayd etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib ma'lum qiladi. Rampur nusxasi xotimas hoshiyasida Boburning quyidagi misralari keltirilgan: "Har vaqtli, ko'rgosen mening so'zumni, so'zumni o'qub yod qilg'osen o'zumni". Bobur, dushanba 15 rabiul oxir, sana 935". Shu betda Bobur misralari bilan yonma-yon Shohjahonning mazkur qayd Boburga tegishli ekanini isbotlovchi fors tilidagi quyidagi fikri keltirilgan: "In ru-



boi turki va isme muborak bathaqqiqat al hazzat firdavs makoni Bobur podsho g'oz anor Olo barxona ast xurram Shohjahon in Jahongir podshoh in Akbar podshoh in Humoyun podshoh in Bobur podshoh" (ya'ni ushbu turkiy ruboiy va ismi muborak haqiqatan Bobur qo'li bilan yozilgan. Buni Shohjahon bitdim).

Ko'rinish turganidek, Bobur bitgan ruboiy manbada to'liq holicha saqlanmagan. D.Rossning taxminiga ko'ra, qo'lyozma muqavalanayotgan paytda chekka-roqdagi ruboiyning keyingi ikki misrasi qirilib ketgan bo'lishi mumkin. Bu fikrga A.N.Samoylovich boshqa qo'shimchasi yo'qligini qayd qilib, D.Ross so'zboshisida

e'tibordan chetda qolgan yana ba'zi masalalar, matndagi tekstologik xatolar ustida to'xtaladi.

Maqola so'ngida A.N.Samoylovich kamchiliklar bo'lishiga qaramay, D.Rossning Rampur nusxasini topib nashr qilishi tahsinga loyiqligi, u tufayli dunyo turkologlari Bobur devonining yana bir yangi nusxasi bilan tanishganini alohida qayd etadi. Maqola yozilganidan keyin A.N.Samoylovichda barcha kamchiliklarni bartaraf qilgan holda Bobur she'riyatini Parij nusxasi bilan birgalikda qayta nashr etish istagi tug'iladi. 1911-1917-yillar davomidagi izlanishlar natijasida A.Samoylovich nashri yuzaga chiqadi. Mazkur nashr "Imperator Bobur she'rlari to'plami. I qism" deb nomlangan. Demak, olimda ishni davom ettirish, II qismni yozish istagi ham bo'lgan.

"BOBUR IJODINI O'RGANISH HAM BURCH, HAM FAXR, HAM BAXT"

Shu ehtimol bilan A.N.Samoylovich arxivi kuzatilganda ishning ikkinchi qismi topildi va tahlil qilindi. Mazkur manba "Imperator Bobur she'rlari va A.N.Samoylovich tarjimalari" deb nomlanadi. Mundarijadan ma'lum bo'lishicha, ish kirish, besh qism, ko'rsatkichlar, matn va tarjimadan iborat bo'lib, muallif Bobur ijodi bo'yicha qator masalalarni o'rganishni rejalashtirgan. Ishning kirish qismi nihoyatda mulohazalarga boy bo'lib, bunday so'zlar bilan boshlanadi: "Biz uchun bu nashrni yuzaga chiqarish, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganish ham burch, ham faxr, ham baxtdir. Bundan 60 yil oldin akademik Ker qo'lidagi nusxa asosida N.I.Ilminskiy Qozonda birinchi bo'lib "Boburnoma"ni nashr qildiradi. Haydarobod nusxasi asosidagi ikkinchi nashr Beverij xonim sa'y-harakati bilan yuzaga chiqdi. I.N.Beryozin "Mubayyin" asarining uchdan bir qismini chop qildiradi (Teufel yozgandek yarmini emas). Mazkur asarni I.N.Beryozin qo'lidagi nusxa asosida to'liq nashrni kamina amalga oshirish niyatidaman".

Shundan keyin olim "Volidiya" asari tarjimasida hamda aruzga bag'ishlangan "Mufassal" asariga qisqacha to'xtaladi. D.Ross ingliz tiliga tarjima qilgan "Tarixi Rashidiy" kitobida Boburning boshqa asarlari ham tilga olinganini yozadi. Xulasada Parij nusxasi jami 89 ta g'azal, 77 ta to'rtlik, 50 ta ikkilik (olam fardlari shunday nomlaydi), 8 ta masnaviydan tashkil topgan, bu she'rlarning shakli va vazn tasnifi ilmiy ish oxiridagi ko'rsatkichlarda keltirilgani qayd qilinadi. Mazkur ishning III qismida Bobur devonining Rampur nusxasi tavsifi keltirilgan. Muallif maqola boshida bu nusxadagi barcha she'rilar Boburning Hindistondagi davri bilan bog'liqligi, unda turkiy nazmdan tashqari fors va urdu tilidagi she'rilar ham mavjudligini qayd qiladi. Keyin bu nusxada mavjud ruboiylarning yarialishi bilan bog'liq voqealarni "Boburnoma" asosida birma-bir tavsiflaydi.

To'rtinchi qism "Boburning devonlarida uchramaydigan she'rilar haqida" deb nomlanadi va unda "Boburnoma"dagi shoir devoniga kirmagan bir qancha she'rilar tahlil qilingan. Bunda olim e'tiborni dastavval Boburning "Abushqa" lug'atida keltirilgan she'rlariga qaratadi. Uning aniqlashicha, "Abushqa"da Boburning sakkitza ruboiysidan iqtibos kiritilgan. Keyin shoir devonlarida uchramaydigan, "Boburnoma"dagi fors va turkiy she'rilar xususida to'xtaladi.

Shoirning "Boburnoma"ga kirmagan yana bir qancha she'rlari tahlil qilingach, ularning tarjimasini keltiriladi. Unda Bobur devonining Parij va Rampur nusxalaridagi barcha she'rlar: g'azal, ruboiy, tuyuq, fardlar rus tiliga tarjima qilingan.

Xullas, A.N.Samoylovich nashr qilgan va qilingan ilmiy ishlari bilan boburshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi va "Bobur ijodini o'rganish ham burch, ham faxr, ham baxti" ekanini isbotladi. I.V.Stebleva, L.Tugusheva, G.F.Blagova kabi boburshunos olimlar A.N.Samoylovich boshlagan ilmiy ishlarni muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.

RUS BOBURSHUNOSLIGINING O'RGANILMAGAN JIHATLARI

2022-yil noyabr oyida Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida xizmat safarida bo'lib, kutubxonalar va arxivlarda ilmiy izlanishlar olib bordik. "Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasini va "yevroturcologica.uz" elektron platformasini yaratish" mavzusidagi grant loyihasi asosida ancha yangiliklar topdik. Shu bilan birga, Rossiyada boburshunoslikka oid materiallar bilan ham tanishdik.

Rus sharqshunosligida o'zbek mumtoz adabiyoti bo'yicha nashr qilingan ilmiy tadqiqotlardan tashqari hali chop etilmagan ilmiy ishlar ham mavjud bo'lib, ular turli fondlar arxivlarida saqlanmoqda. Bu o'rinda e'tibor, asosan, Rossiyaning Sankt-Peterburg kutubxonalari fondlaridagi arxivlarga qaratiladi. Rossiya Milliy kutubxonasi arxivi, Rossiya Faga qarashli Sankt-Peterburg filiali arxivi va Sharq qo'lyozmalari instituti sharqshunoslar arxividagi mavzuga oid manbalar o'rganilib, ularda mavjud adabiyotshunoslik masalalarini yoritishga harakat qilindi.

Arxiv sharqshunosligi nisbatan yangi yo'nalish va imagoologiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Imagoologiya esa qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan sanaladi. Imagoologiya-ning vazifasi tarix va arxiv haqiqatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. O'zbek adabiyotshunosligida arxiv mahallalari ima-



"Boburnoma"ning Qozon nashri asosida yig'ilgan uch jildidan iborat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik va etnografik yo'nalishdagi ma'lumot hamda qaydlar saqlanadi.

A.N.Samoylovich serqirra ijod sohibi, V.Radlov, P.M.Melioranskiy kabi turkologiya maktabining munosib va killaridan biridir. Olimning bizgacha yetib kelgan ilmiy-adabiy merosi uning ham adabiyotshunos, tilshunos, matnshunos, ham pedagog, tashkilotchi, rahbar sifatida samarali ish olib borganidan dalolat beradi. Qatag'onning achchiq qismati A.N.Samoylovichga bir qancha xayrli ishlarni, ilmiy nashrlarini amalga oshirishga imkon bermadi.

Akademik A.N.Samoylovich Sharq adabiyotiga alohida mehr bilan qaragan va turkiy adabiyot bo'yicha qo'lyozma manbalar asosida ish olib borgan rus olimlaridan biridir. O'zbek tili va adabiyoti, etnografiyasi va xalq og'zaki ijodi o'rganilishida olimning alohida o'rni bor. A.N.Samoylovich dastavval e'tiborini "Boburnoma"ga qaratadi. Asarning barcha tarjimalari bilan yaxshi tanish

A.Beverij kabi olimlar tarjimalari, ilmiy ishlari haqida yozgan taqrizlari fikrimiz dalilidir. A.N.Samoylovichning "Boburnoma" tarjimasini bilan bog'liq nashr qilinmagan taqrizlarida tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan tamoyillar belgilab berilgan, matnini xato o'qish ayovsiz tanqid qilingan.

Masalan, uning ingliz olimasi A.Beverij xonim tarjimasiga yozgan taqrizida tarjimon faoliyatiga baho berishda to'rtta zarur mezonni keltiradi. Ya'ni tarjimon tilni barcha nozikliklari bilan mukammal bilishi, lug'atlar bilan ishlash malakasi bo'lishi, o'zigacha qilingan tarjimalarni qiyosiy-tanqidiy taqqoslashi, bu boradagi ilmiy adabiyotlar, ayniqsa, rus olimlari tadqiqotlari bilan har tomonlama tanishishi kerakligi qayd etiladi. A.N.Samoylovich tarjimadagi ayrim parchalarning tahlili orqali yuqoridagi qayd qilingan birinchi, uchinchi va to'rtinchi talab to'la bajarilmaganini aniqlaydi.

Rus olimi S.A.Polyakov ham 1904-yilda asardan ellik bet tarjima qiladi. A.N.Samoylovich 1907-yilda bu muallif faoliyati va tarjimasini ham ayamasdan tanqid qiladi.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.
43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 01:20

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalari tahririyati" DUK

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05